

Til – millat ma'naviyatining muqaddas ko'zgusi.

Qahhorova Nargiza Hayit qiz

email: qahhorovanargiza02@gmail.com

Eshmirzayeva Lobar Toyir qizi

email: lobareshmirzayeva8@gmail.com

Madina Xushmanova Yusufali qizi

email: xushmanovamadina49@gmail.com

Annotatsiya. : Ushbu maqolada ona tili – millatning ruhi ekanligi, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgani va ona tili bo'lmish o'zbek tilining tarixi, rivojlanish jarayonlari va uni o'qitishning afzalliklari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Davlat tili, til, muloqot, tilga e'tibor, ona tili, til bayrami, tilshunoslik, davlat tili maqomi, minbar, til bayrami.

Language is the mirror of the nation

Abstract. Language, nation, state... These three concepts cannot be imagined separately from each other. Everyone speaks in his native language, thinks in his native language, feels in his native language, dreams in his native language... Language is national pride and national pride. Language is not only a means of communication, it expresses the inner world of a person, helps him to understand the world deeply, defines his outlook and maturity. That is why there is a developing country on earth that tries to raise the status of its language.

Key words: State language, language, communication, attention to language, mother tongue, language holiday, linguistics, state language status, pulpit, important date.

Язык – зеркало нации

Абстрактный. Язык, нация, государство... Эти три понятия невозможно представить отдельно друг от друга. Каждый говорит на родном языке, думает на родном языке, чувствует на родном языке, мечтает на родном языке... Язык – это национальная гордость и национальная гордость. Язык является не только средством общения, он выражает внутренний мир человека, помогает ему глубоко понять мир, определяет его мировоззрение и зрелость. Именно поэтому на земле есть развивающаяся страна, которая пытается повысить статус своего языка.

Ключевые слова: Государственный язык, язык, общение, внимание к языку, родной язык, языковой праздник, языкознание, статус государственного языка, кафедра, важная дата.

Taxminlarga ko‘ra, dunyoda ellik million kishi o‘zbek tilida gaplashar ekan. Bu yer yuzi aholisining har 150 kishidan biri o‘zbek tilida gaplashishini anglatadi. So‘zlashuvchilar soniga ko‘ra, o‘zbek tili sayyoramizda eng keng tarqalgan, har birida kamida 30 million aholi gaplashadigan 40 ta tildan biri hisoblanadi. Yaqinda Rossiya Tashqi ishlar vazirligi rasmiy vakili O‘zbekistonda davlat tilida ish yuritishni ta‘minlamaganlik uchun mansabdor shaxslarga javobgarlikni belgilovchi qonun loyihasini qo‘llab-quvvatlaydiganlar kamligini aytib munosabat bildirganligi ommaviy axborot vositalarida turli muhokamalarga sabab bo‘ldi. Yuqoridagi raqamlardan kelib chiqib, o‘zbek tilida gaplashuvchilar soni kam deyish mumkinmi?! O‘zbek tili chuqur tarixiy ildizga ega o‘zbek millatining umumiy mulkidir, chetdagi odam xohlagancha muhokama qiladigan mulk emas.

Til bayramini nishonlash arafasida turibmiz. 1989-yil 21-oktyabr sanasi millatimiz uchun muhim sanalardan biridir. 31 yil avval O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinib, tilimizga davlat tili maqomi berilgan. Oxirgi vaqtlarda o‘zbek tilining katta minbarlarda yangrayotganligini eshitib, faxru-iftixorga to‘lasan kishi. Lekin, davlat ichida hanuzgacha to‘liq davlat tilida ish olib bormasak, katta minbarlardan turib, afkor ommaga nimani tushuntirmoqchimiz o‘zi? Ayrim davlat tashkilotlarida ish yuritish davlat tilida emas, hali ham rus tilida olib borilayotganligi davlat tiliga bo‘lgan hurmat va e‘tiborning pasayishiga olib kelmaydimi? Bilishimcha, ayniqsa qurilish, temir yo‘l sohasi idora va tashkilotlari hozirgacha rus tilida ish yuritadilar. Bundan tashqari, yoshlar orasida o‘zbek tili qoidalaridan to‘g‘ri foydalanmaslik, savodsizlik darajasi birmuncha ortib borayotgandek. Maktablarimizning barcha sinflarida ona tili fani o‘qitiladi, ammo bu fanni keyinchalik tilshunoslik yo‘nalishidan ketadigan kishilar o‘rganishi lozim degan tushuncha shakllanib qolmoqda. Yaxshi eslayman. Maktabdagi ona tili o‘qituvchimiz darsda ko‘p diktant, insho va bayon yozdirardilar. Boshida ko‘p xato qilardim, bora-bora xatolarim kamayib, daftaringa qizil ruchka tegmaydigan darajaga keldi. Esimda qolgan oxirgi diktantda bitta xato qildim, ya‘ni “shafqat” so‘zini “shavqat” deb yozganman va bu men uchun katta dars bo‘lgan. Kollejda o‘qish uchun kirish imtihonida ham ona tili fanidan insho yozganmiz. Maktablarimizda diktant, insho va bayon yozishga ko‘proq e‘tibor berish, o‘quvchilarda matn yaratish ko‘nikmasi va malakasini rivojlantirish og‘zaki va yozma nutq savodxonligini oshiradi deb hisoblayman.

Bugungi kunda o'zbek tili bir necha rivojlangan davlatlarning 60 ga yaqin oliy o'quv yurtlarida va 100 dan ziyod maktablarida o'rganib kelinayotganligi haqida ma'lumotlar bor. 2018-yil avgust oyida televizorda bir o'zbek jurnalistining Germaniyadagi Gumbold universiteti professori Ingeborg Baldauf xonim bilan uyushtirgan suhbatini ko'rib qoldim. Ochig'i, bu ayolning sof o'zbek tilida gaplashayotganligini ko'rib, hayron qoldim. Chunki u o'zbek tili qoidalarini joyiga qo'yib, ravon suhbatlashayotgandi. Keyin bilsam, professor o'zbek tili bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ustida ishlayotgan ekan. Universitetda o'zbek tilini o'rganayotgan xorijlik talabalar ham bor ekan. O'zbekistonda turizmni rivojlantirish sharoitida agar biz boshqalarga qiziq bo'lgan urf-odatlarimizni, adabiyotimiz durdonalarini, tansiq taomlarimizni, tilimizni jahonga chiroyli ko'rsata olsak, yurtimizga qiziquvchilar soni yildan-yilga ortib boradi.

Avar shoiri va yozuvchisi Rasul Hamzatovning "Mening Dog'istonim" asari sevib o'qiydigan kitoblarimdan biri. Barcha o'qishi lozim bo'lgan 100 ta kitob ro'yxatida bu asar nomi ham keltirilgan. Shu asarda keltirilgan bir hikoyani qayta-qayta o'qiyman. Hikoyani to'lig'icha keltirmoqchiman:

Parijda dog'istonlik rassomni uchratib qoldim. U inqilobdan keyin Italiyaga ketgan, o'sha joyda uylangan va yurtiga qaytmagan. Tog'liklar an'anasi bo'yicha tarbiya ko'rgan dog'istonlikning yangi mamlakatga ko'nikishi qiyin kechibdi. Dunyo bo'ylab kezib chiqqan rassom oxiri go'zal poytaxt shahardan qo'nim topibdi. Ammo qayda kezmasin, sog'inch ajralmas yo'ldosh bo'libdi. Men bo'yoqlar orqali suratlariga ko'chgan sog'inchni ko'rgim keldi va rassomdan ijod namunalaridan ko'rsatishini so'radim.

Rassom "Vatan sog'inchi" suratini ko'rsatdi. Unda italyan ayol (rassomning xotini) qadimiy avarliklar kiyimida tasvirlangan. Ayol tog'dagi buloq yonida, qo'lida gotsatlinlik ustalar tayyorlagan kumush ko'za. Toshlar orasidagi ovul qayg'uli - qora rangda, ortidagi tog' ham qoramtir. Cho'qqilarni tuman qoplagan.

- Tuman - bu tog'larning ko'z yoshi, - deya izoh berdi rassom. - Tog' yon bag'ridan tuman suzib o'tganda, qoyalar ustida tomchilar paydo bo'ladi. Tuman, bu - men.

Boshqa rasmda tikanli buta shohida o'tirgan qush tasvirlangan. Bunday tikanli buta - changallar, toshlar orasida o'sadi. Qush sayrayapti, uyning derazasidan g'amgin tanish ayol qarab turibdi. Mening suratga qiziqish bilan qarab turganimni ko'rgan rassom tushuntirishga urindi:

- Bu surat qadimiy avar afsonasi asosida yaratilgan.

Qanday afsona?

- *Qushni ushlab, qafasga solishadi. Qafasga qamalgan qush kechayu kunduz faqat bitta soʻzni takrorlayvergan: Vatan, Vatan, Vatan, Vatan, Vatan, Vatan... Men ham oʻtgan yillarda faqat shu soʻzni takrorladim.*

Qushni ushlab turgan kishi oʻyga toldi: “Uning vatani qanday ekan, qayerda ekan? Ehtimol, jannat qushlari va jannat daraxtlari bor gullab-yashnagan bir oʻlkadir. Yaxshisi, qushni qoʻyib yuborib, qaysi tomonga uchishini kuzatayin. Menga qushcha moʻjizaviy mamlakat yoʻlini koʻrsatar”. U oltin qafasning tuynugini ochdi, qush ozodlikka chiqdi. Qush oʻn qadamcha uchib, silliq toshlar orasida oʻsgan changal shoxiga qoʻndi. Shu changal shoxlari orasida qushning uyasi bor ekan... Men ham oʻz Vatanimga qafasning derazasidan tikilib turibman, - deya hikoyasini tugatdi rassom.

- *Nega unda oʻz ovulingga qaytmayapsan?*

- *Endi kech. Oʻz vaqtida men Vatandan qaynoq yuragimni olib ketgandim, endi unga keksaygan suyagimni olib qaytamanmi? Parijdan qaytganimdan keyin rassomning qarindoshlarini izlab topdim. Hayratlanarlisi, uning onasi hali hayot ekan. Onasining uyiga toʻplangan qarindoshlari oʻz Vatani tashlab ketib, uni oʻzga yerlarga almashgan oʻgʻil haqidagi hikoyani gʻamgin tinglashdi. Ular adashgan oʻgʻilni kechirganday boʻlishdi, tirik ekanidan suyunishdi. Shunda birdan onasi soʻrab qoldi:*

- *Sizlar avarcha soʻzlashdinglarmi?*

- *Yoʻq, biz tarjimon yordamida gaplashdik. Men ruscha gapirdim, u fransuzcha.*

Milliy til – xalqlar va millatlarning asosiy muloqot manbaidir. Til xalqlarni birlashtiradi, tarbiyalaydi, oʻqitadi, urf-odat, anʼana va madaniyatlarni saqlaydi, avloddan-avlodga oʻtishini taʼminlaydi. Til – mamlakat timsoli, qimmatbaho mulkdir. Til madaniyatiga amal qilinmasa, milliy madaniyatga dogʻ tushishi turgan gap. Tilni sevish, ardoqlash, millatni sevish va uni qadrlash bilan teng hisoblanadi. Har qaysi xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, madaniyati uning tilida oʻz ifodasini topadi.

Til – millat koʻzgusi, deb bejiz aytishmagan. Xalqimizning necha asrlik boy tarixi, koʻhna va serqirra madaniyati oʻzbek tili – ona tilimiz taʼsirida shakllangan.

Soʻngi yillarda Oʻzbekistonda barcha soha va tarmoqlar kabi ona tilimiz qadri va nufuzini yanada oshirish borasidagi siyosat va amaliy ishlarimiz ham yangi

bosqichga ko'tarilmoqda. Buning tasdig'i o'zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomi va obro'-e'tiborini tubdan oshirish bo'yicha qabul qilingan tarixiy farmon va qarorlar misolida yaqqol ko'rish mumkin. Tarixga bir nazar: 1989 yil 21 oktyabr kuni yurtimizda "Davlat tili haqida"gi qonun qabul qilindi. O'zbek tili – ona tilimiz davlat tili sifatida xalqimizni birlashtiradigan, jamiyatimizni ulug' maqsadlar sari safarbar etadigan qudratli kuch bo'lib maydonga chiqdi. 1991 yil 31 avgustda O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e'lon qilindi. Asosiy qonunimiz – Konstitutsiyamizning o'zbek tilida yaratilishi esa ona tilimizning nufuzini yanada yuksaltirdi. Davlatimiz madhiyasi xalqaro maydonlarda o'zbek tilida yangray boshladi. Ayniqsa, ona tilimiz Birlashgan Millatlar Tashkilotining yuksak minbarida, ulkan siyosiy sammit va uchrashuvlarda baralla yangrab, tinchlik, do'stlik va hamkorlik vositasiga aylanib borayotgani barchamizni quvontiradi.

O'zbekiston Prezidenti 2019- yil 21-oktyabrda "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonni imzoladi. Unga muvofiq, "2020 – 2030- yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi tasdiqlandi. 2020- yil 20 -oktyabrda esa Prezidentimizning "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni e'lon qilindi. 21-oktyabr – O'zbek tili bayrami kuni, deb belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida mustahkamlanganidek, O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

Ona tilimizning xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, davlat tilini hayotga to'laqonli tatbiq etish barchamizning fuqarolik burchimizdir. Hozirgi kunda Taraqqiyot strategiyasi doirasida Yangi O'zbekistonni barpo etishga qaratilgan ezgu intilish va harakatlarimiz hal qiluvchi bosqichga ko'tarilmoqda. Bu yo'lda milliy o'zligimiz, g'urur-iftixorimiz timsoli bo'lgan ona tilimiz, hech shubhasiz, beqiyos kuch-qudrat va ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi.

Lekin, shu o'rinda savol tug'ilish tabiiy: nahotki o'zbek tili biror bir joyga nom qo'yish uchun ham yaroqli bo'lmasa?! Afsus, barchamizga ma'lumki, ko'chalarda do'konlar, supermarketlar, turli xil ustaxona shoxobchalari, go'zallik salonlari, turli xil osmono'par binolar, bog'chalarga qo'yilgan nomlar o'zbek tilida

emas balki, boshqa xorij tillarida yozilganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Bu haqiqatni isbotlash uchun siz ulkan bir ilmiy izlanish qilishingiz shart emas, aynan ko'chaga o'tlanib turib, qo'lingizga qalam va ruchka olgan holatda chiqsangiz kifoya. Naqadar achinarli holat bo'lishiga qaramay, biz bunga ko'nikib yashab kelmoqdamiz! Axir biz O'zbekistonda yashayapmiz-ku, nima uchun unda joy nomlarini o'zbek tilida nomlay olmaymiz? Buning uchun kim aybdor: davlat organlarimi yoki o'zbek millatimi? Ijtimoiy tarmoqlarda O'zbekistonda osmono'par binolar qurilayotgan bo'lishiga qaramasdan, ularning nomi hali-hamon ingliz tilida ekanligi haqida bildirilgan turli xil fikrlarga duch kelishimiz mumkin. Misol uchun ularning birida yozilishicha, Toshkent shahrining markazida qurilgan "Nest one" deb nomlangan turar joy binosining nomi o'zbek tilida emas, aynan ingliz tilida! Vaholanki, bu bino O'zbekistonda, aynan o'zbeklar tomonidan (inglizlar emas!) qurilgan-ku! Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarning birida yozilgan maqolada mana bu so'zlarni ham uchratishimiz mumkin: "Xullas, bunyodkori o'zbekmi, uning dastxati qurgan binosida yaqqol ko'rinishi kerak va bu o'sha quruvchining o'zligini yo'qotmaganidan darak beradi. Dastxat avvalo nomlarda namoyon bo'ladi. Ochig'ini aytganda, rasmiy matbuotda o'zbek tiliga bo'lgan e'tiborsizlik anchagina yuqori. Yana ham aniqrog'i, bu borada davlat muassasalari yetakchilik qilib kelmoqda. Aslida ular tilshunoslarni jalb qilib bo'lsa ham, o'zbek tilining boyligini xalqqa namoyon etish, yangi so'z va iboralarni o'zbekcha talqinini joriy qilishda bosh qosh bo'lishlari kerak".

O'zbek tili ham shunday tillar sirasiga kirishiga yana ozgina harakat qilinsa bo'ldi, o'zbek millatining ko'zgusi hisoblanmish til butunlay yo'q bo'ladi qoladi! Qurilgan binolarga boshqa tillarida nom beraversak, zamon talabi deb xodim tomonidan ishchiga ish uchun o'zbek tilining o'zigina kifoya ekanligini bila turib ham rus va ingliz tillarini bilishing kerak degan talab qo'yaversak, oilada o'zbek tili bilan bir qatorda ingliz va rus tillaridagi so'zlarni aralashtirib ishlatishni, tilning ahamiyati haqida faqatgina Til bayrami kunida eslab o'tsak, OAVda o'zbek tiling buzib talqin etilgan variantidagi so'zlar va xato yozilgan so'zlarni ayovsiz namoyish qilishni davom ettiraversak o'zbek tilini yo'qotish uchun 25 yil emas, balki 10 yilning o'zi ham kifoya qiladi. "Tilimiz qaerda buzilyapti?" deya o'zingizga savol berib ko'ring va ko'chaga chiqing. Ishga yoki o'qishga borar ekansiz, yo'l-yo'lakay atrofda qurilgan bir-biridan go'zal binolar, ko'p qavatli uylarni ko'rib ko'zingiz quvnasa, ularga qo'yilgan tilimiz uchun yot bo'lgan nomlarni ko'rib, ta'bingiz xira tortadi. Bozorga borsangiz, yurtimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga qo'yilgan nomlarda ham o'zbekcha so'zlarni deyarli uchratmaysiz. Bunday nomlar orqali

tadbirkorlar xaridorlarning diqqatini tortishmoqchimi yoki tilimiz shunchalik qashshoqmi?

Bugungi kunda nega ko'pchilik, ayniqsa, yoshlarimiz o'z nutqiga chet tillardagi turli so'zlarni qo'shib gapirishadi yoki o'sha tilni ham yaxshi bilishadimi? Yaxshi bilishsa-ku mayli, ammo... Tilimiz shunchalik qashshoqmi yoki bu ham madaniyatning bir belgisimi? Afsuski, mana shunday savollar bizni chuqur o'yga toldiradi. O'z ona tilini hurmat qilgan inson hech qachon tilni buzib gapirmaydi. Bugungi qo'shtirnoq ichidagi madaniyatli va zamonaviy yoshlar tilimizni qay darajada bilishar ekan? Ko'pgina chet ellarda o'zbek tilini o'rganishayotgan bir paytda tilning haqiqiy egalari uni buzib gapirishsa, qanchalik to'g'ri? Ona tilini sevmagan, uning qadrini anglamagan inson yuragida el-u yurtga, Vataniga muhabbat ham bo'lmaydi. Biz tilimizni qanchalik asrasak, yuksaltirsak, rivojlanishiga hissa qo'shsak, o'zga millatlar ham bizning tilimizni hurmat qilishadi hamda uning dunyo hamjamiyati maydonidagi o'rnini va poydevorini shunchalik mustahkam qo'ygan bo'lamiz. Zero, "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadigan oyinai hayoti til va adabiyotdir", "Milliy tilni yo'qotmak, millatning ruhini yo'qotmakdur".

Qachonki bolalar o'z ona tillarida o'qishni to'htatar ekan, o'sha til yo'qolib ketish arafasiga kelib qoladi. Tillarni saqlab qolish bu o'sha xalqning madaniyati, urf-odati, rasm-rusumlarining saqlanib qolinishini anglatadi. Chunki, xalq taqdiri til taqdiri bilan bevosita bog'liq. Til har bir millat madaniyatining o'zagidir. Shu sababli ham tilning saqlanishi xalq taraqqiyoti va kelajagini belgilaydi. Til xalqni birlashtiradi, tarbiyalaydi, o'qitadi, urf-odat, ananalarini saqlaydi. Shunday ekan, ona tilimizning xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini yuksaltirishda, uni milliy va umumbashariy tushunchalar asosida taraqqiy etgan tillar safiga qo'shishda har birimiz tilimizga chuqur hurmat bilan yondashimiz kerak.

Foydalangan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)
2. O'zbek xalq bayramlari. "Sharq". T.2002
3. Xalq so'zi», 2001 -yil, 25- oktyabr
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/O'zbek_tili
5. <https://alifbo.tech.blog>
6. <http://uza.uz/uz/politics/prezident-shavkat-mirziyoyevning-ozbek-tiliga-davlat-tili-m-21-10-2019>